

PEDAGOGIK KASBIY KO'NIKMALAR HAMDA KASBIY KOMPETENTLIKNING TA'RIFI, TURLARI VA AHAMIYATI

Matquliyev Jasurbek, Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik kasbiy faoliyat, kasbiy kompetentlik va uning ta'lim samaradorligidagi ahamiyati alohida yoritilgan. Tahlil jarayonida kasbiy ko'nikmalarning turlari va vositalari ta'rifi ham izohlangan. Maqolada pedagogik sohaning jamiyat rivojida ijobiy ta'siri ham ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mahorat, kasbiy faoliyat, kompetentlik, mashg'ulot, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ, ВИДЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Маткулиев Джасурбек, магистрант Азиатского Международного Университета

Аннотация. В статье специально освещается педагогическая профессиональная деятельность, профессиональная компетентность и ее значение в эффективности образования. Также поясняется определение видов и средств профессиональных навыков в образовательном процессе. В статье также научно анализируется положительное влияние педагогической сферы на развитие общества.

Ключевые слова: Умение, профессиональная деятельность, компетентность, подготовка, образование, знания, способности, квалификация.

DEFINITION, TYPES AND IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL AND PROFESSIONAL SKILLS AND PROFESSIONAL COMPETENCE

Matkuliyeв Jasurbek, master's student at Asian International University

Abstrac. This article specifically highlights pedagogical professional activity, professional competence and its importance in educational effectiveness. The definition of types and means of professional skills in the educational process is also explained. The article also scientifically analyzes the positive impact of the pedagogical sphere on the development of society

Key words: skill, professional, activity, competence, training, education, knowledge, aptitude, qualification.

Hozirgi zamon insoniyat oldiga juda jadallik bilan rivojlanish va taraqqiyot talablariga javob beradigan yetuk mutaxassis bo'lsagina raqobatbardoshlikga bardosh bera oladi. Shu o'rinda har qanday sifatli kadr avvalo mukammal ta'limga ehtiyoj sezib, ta'lim orqaligina yuqori samaradorlikga erisha oladi. O'z navbatida yuqoridagi masala pedagoglar va bo'lajak pedagoglar oldiga kasbiy ko'nikmalarni yuksak darajada shakllantirish hamda yetuk pedagogic kompetentlikga ega bo'lish talabini qo'yadi.

Ilmiy maqolamizda ham ayni shu masalaga atroflicha ilmiy yondashib, pedagogik kasbiy mahorat, uning turlari, ta'rifi va ahamiyati hamda kasbiy kompetentlikning mazmun-mohiyatini yoritishga e'ibor beramiz.

O'qituvchining "kasbiy kompetentligi" tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko'rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, "ta'limda hunarmandni" emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan "pedagogik madaniyat" tushunchasi bilan bog'laydi.

Tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kompetentsiyaning turli ta'lim yo'nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. N.A.Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan [3.78]. Tayanch kompetentlikliklar – ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni nihoyasida ega bo'lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma'nodagi "kompetentlik" tushunchasiga kiritiladi. Ta'lim jarayonining maqsadi ta'lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish hisoblanadi.

S.Ya. Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlikni "savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet" umumiy bo'g'inidagi ta'lim natijasi sifatida qaraydi. B.S. Gershunskiyning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o'zlashtirish ko'nikmalari va ularni faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma'lum darajasi, sifat va natijaviy ko'rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta'limining darajasi, insonning tajribasi va individual qobiliyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta'limga va o'z-o'zini takomillashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas'uliyatli munosabati bilan aniqlanadi.

Kasbiy kompetentlik – ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko'riladi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy turlari

Olim-pedagoglarning ko'pchiligi dars berish va tarbiyani pedagogik faoliyatning asosiy turlari deb ataydilar. Kasbiy ta'lim pedagoglari faoliyatining asosiy turlariga ta'rif berish uchun Standartda kasbiy-pedagogik faoliyatning quyidagi asosiy turlari ajratiladi:

- kasbiy ta'lim,
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat,

- uslubiy ishlar,
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati,
- ilmiy-tadqiqot ishlari,
- madaniy faoliyati.

Kasbiy ta'lim - bu o'quvchilarga aniq kasbiy sohada bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish va mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni, zamonaviy jamiyatning talablarga javob beradi. Shunday qilib, kasbiy ta'lim o'ziga ikkita tashkil etuvchini kiritadi - dars berish va tarbiyalashi.

Dars berish - bu yangidan yangi bilish masalalarini yechishga yo'naltirilgan, o'quvchilarni faol bilish faoliyatini pedagog tomonidan tashkil etilishi.

Shuni aytish lozimki, o'rganish - bu pedagog va o'quvchini birgalikdagi faoliyati, undagi bosh ishtirokchi o'quvchi hisoblanadi. Pedagog doimo yodda tutishi lozim, uning shaxsiy faoliyati yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi xarakterdaligini, o'quvchi faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga bog'liqligi, o'rganishda unga yordam berishda, uning roli va ahamiyati borligini.

Tarbiyalash - bu faoliyat, tarbiyalash muhitini "tashkil etishga yo'naltirilgan", va tarbiyalanuvchilarni har xil turdagi faoliyatini boshqarish (shu jumladan anglash) maqsadida masalalarini yechish.

U kasbiy kompetentlik funksional savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko'ra shaxsning shakllantiriladigan sifatleri: mas'uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlarni egallashga intilish, haqiqatni estetik idrok etish, o'z ishining haqiqiy professionalini tasavvur etib bo'lmaydigan yuqori axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o'z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin.

Kasbiy ko'nikmalar talabada barqaror ma'lum bir kasbga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat ma'lum faoliyat turiga nisbatan barqaror qiziqishlar qo'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida kasbiy motivlarini vujudga keltiradi, va shu kasbga tegishli nazariy bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagog va talabalarda kasblarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi. Ana shu boisdan o'qituvchi tanlagan yo'nalishi va kasbga nisbatan talabalarda qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o'quv materiali va o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish imkoni yotadi.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash joizki, kasbga qiziqish bu kasbiy ko'nikmalar rivoji doirasida o'sadi, bilimlar bilan o'zaro ta'sir etadi, ular o'zaro uzviy bog'lanib ketadi. Pedagoglar kasbiy faoliyat hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy ko'nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasin, balki talaba shaxsining xulq-atvori, ya'ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo'lishini ham izohlashga xizmat qilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-B.51-230.,
2. O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar.
3. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качества профессионального образования // "Образование и наука" журналы. 2002. №2. С.14.
4. Muslimov N.A. va boshkalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. 76-81 b.,
5. Mamurov A.A. Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences jurnali. 2023 iyul, 3-son. 64-73 b.,
6. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
7. G'affarova G.G'. Kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-8-son. 133-137-b.
8. G'affarova G.G' Kreativlik falsafasi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-6-son. 280-283-b.
9. Gaffarova, G. (2023). Transformations of youth consciousness in a digital society. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 2(118), 1-5.
10. Xudayorova Z.O. Inson kapitali tushunchasining falsafiy tahlili. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-10-son. 348-353-b.
11. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. *Miasto Przyszłości*, 52, 685–690. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4698>
12. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(2), 13-17. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HCBVN>
13. F.Ibrokhimov. Philosophy Education as a Scientific-Pedagogical Problem. *Miasto Przyszłości* 54, 1276-1280.
14. Ibroximov F.A. Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati. FarDU Ilmiy Axborotnoma 6 (6), 374-378.
15. Yo'ldashev A. (2024) Sun'iy intellektning sohalararo aloqadorligi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi, №11, 408-412.
16. Йулдошев А. Значение кластерного подхода в образовании. *Miasto Przyszłości* 31, 48-50.
17. Berkinov O.T. KIBERMAKONNING ONTOLOGIK XUSUSIYATLARI // O'ZBEKISTON MILLIY Вестник НУУз АСТА NUUZ UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10], 70-73. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.4429>

18. Berkinov O.T. / Kibermakonda yoshlar ma'naviy hayoti. / Monografiya. - Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 62 bet.